



PREPARING STUDENTS FOR PROFESSIONAL ACTIVITY ON THE BASE OF INDIVIDUALIZED EDUCATION IN THE TEACHING OF SPECIALISTS IN HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS

Bukhara State University

Associate Professor, Department of Electronics and Technology

Sayfullaeva Dilafruz Akhmadovna

Bukhara Engineering Technology Institute

Sobirova Mahfuza Raxmatilloyevna

Abstract: opinions are expressed about the teaching of specialized subjects in higher educational institutions, their personal capabilities, individual psychological characteristics, interests and inclinations, teaching principles, contradictions in the process of individualization of education in preparing students for professional activities based on individualized learning

Keywords: specialization, individualization, professional activity, personal capabilities, psychological characteristics, interests, principles of learning, approach, science of technology

Аннотация: высказываются мнения о преподавании профильных предметов в высших учебных заведениях, их личностных возможностях, индивидуально-психологических особенностях, интересах и склонностях, принципах преподавания, противоречиях процесса индивидуализации обучения при подготовке студентов к профессиональной деятельности на основе индивидуализированного обучения

Ключевые слова: специализация, индивидуализация, профессиональная деятельность, личностные возможности, психологические особенности, интересы, принципы обучения, подход, наука о технике

Annotatsiya: oliy ta'lim muassasalarida ixtisoslik fanlarni o'qitish, talabalarni individuallashtirilgan ta'lim asosida kasbiy faoliyatga tayyorlashda ularning shaxsiy imkoniyatlari, individual psixologik xususiyatlari, qiziqishlari va moyilliklari, o'qitish tamoyillari, o'qitishni individuallashtirish jarayonining ziddiyatlari haqida fikrlar bayon etilgan.

Kalit so'zlar: ixtisoslik, individuallashtirish, kasbiy faoliyat, shaxsiy imkoniyatlar, psixologik xususiyatlar, qiziqishlari, o'qitish tamoyillari, yondashuv, texnologiya fani.

Dunyoda global vazifalaridan biri insonlarda innovatsion yondashuvlarni shakllantirishdir. Bunda yangi g'oyalar ishlab chiqarish, murakkab jarayonlarda yechim topa bilish, kasbiy faoliyatga innovatsion, ijodiy yondashish, oqilona tavakkalchilikka bo'lgan qobiliyat, kasbiy barkamollik kabi harakatlar nazarda tutiladi. Jahon miqyosida pedagog kadrlarining ijodiy salohiyati, texnologik kompetentligi va kreativligini rivojlantirish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va dasturlari orqali o'qitishning innovattsion texnologiyalardan kompleks foydalanish orqali ijtimoiy-iqtisodiy yuksalishning intellektual resurslarini hamda ixtisoslik fanlarni o'qitishda talabalarni individuallashtirilgan ta'limga asosida kasbiy faoliyatga tayyorlashda o'quv materiallari mazmunini takomillashtirish zaruriyati yuzaga kelmoqda. Mazkur zaruriyatdan kelib chiqib, oliy ta'limga muassasalarida ixtisoslik fanlarni o'qitishda talabalarni individuallashtirilgan ta'limga asosida kasbiy faoliyatga tayyorlashda zamonaviy didaktik vositalarini ishlab chiqish, elektron ta'limga resurslaridan, innovatsion texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish hamda o'quv-uslubiy ta'minot tizimini shakllantirish dolzarb vazifalardan biridir. Ushbu dolzarb vazifalarni amalga oshirishda barcha fan sohlarini tubdan takomillashtirish, O'zbekiston Respublikasi Prizidenti Sh.M.Mirziyoevning 2020-yil 23-sentyabrdagi qabul qilingan "Ta'limga to'g'risidagi Qonuni", belgilab berilgan davlat ta'limga standartlari asosida to'g'ri ishlab chiqish maqsadga muvofiq [1].

Bugungi kunda oliy ta'limga muassasalarida ixtisoslik fanlari davlat ta'limga standartlari talablariga muvofiq o'qitilmoqda. Ixtisoslik faniga qo'yilgan talablar, fanlarning boshqa fanlar bilan bog'liqligi, shuningdek ixtisoslik fanlarini o'qitishda malaka talablari, o'qitish shakllari, fanning tadqiqot metodlari, didaktik tamoyillari, didaktik tizimlari asosida tashkil etilmoqda.

Ta'limga muassasalarda bir xillashtirilgan yondashuvning maqsadini bu tadqiqotchilar ta'limga oluvchining muvaffaqiyatga erishishiga aynan uning o'zi

uchun samarali bo‘lgan usullar va uslublarni shaxsning eng rivojlangan tomonlarini faollashtirish hisobiga topishiga yordam berishi uchun mazkur bilim olish sub’ektining shaxsiy tavsiflarining butun bir majmuaga eng ko‘p darajada javob beruvchi pedagogik sharoitlarni yaratishdan iborat.

O‘qitishni individuallashtirish muammosini ishlab chiqishdagi muhim asos bo‘lib, bir qator didaktik olimlar va psixologlarning juda ko‘p tadqiqotlari xizmat qiladi.

Individuallashtirilgan o‘qitish jarayoni ziddiyatlarining turli xil jihatlarini ishlab chiqishida, o‘qitishni individuallashtirishning o‘ziga xos jixatlarini qarab olishga va individuallashtirish jarayonining ziddiyatlarini harakatlantiruvchi kuch tarzida ishtirok etish uchun zarur shartlarni belgilashga imkon beradi.

O‘qitishni individuallashtirish jarayonining ziddiyatlari orasidan quyidagilarni alohida ajratish mumkin:

- * o‘quv rejalar, dasturlarida o‘qitilish, tarbiyalash, rivojlantirish darajasida nazarda tutilganlar bilan erishilgan natija o‘rtasidagi ziddiyat;

- * o‘quv topshirig‘ining mazmunini aniqlashdagi ziddiyat topshiriqning mazmuni, tavsifi, qiyinlik darajasiga mos bo‘lmagan holda namoyon bo‘ladi;

- * texnologiya fani o‘qituvchilarining o‘rtacha darajada tayyorlanganligiga mo‘ljallangan va ularidan har birining haqiqiy o‘quv imkoniyatlari o‘rtasidagi ziddiyat;

- * amallar va metodlar orasidagi ziddiyat – texnologiya fani o‘qituvchilarining maqsadidan kelib chiqib, bajarishi zarur bo‘lgan harakatlari bilan aniq maqsadga, aniq o‘quv vaziyatiga erishish shartlariga bevosita bog‘liq bo‘lgan harakatlar o‘rtasidagi nomuvofiqlik.

Bu ziddiyatlarni hal qilish yagona yo‘li o‘quv rejalar va dasturlarini har bir texnologiya fani o‘qituvchilarining tayyorgarligi, intilishlari, haqiqiy o‘quv imkoniyatlaridan kelib chiquvchi ob’ektiv talablarini inobatga olib takomillashtirishdir. Buning uchun quyidagi sharoitlar zarur: haqiqiy o‘quv imkoniyatlarini bilish, har bir texnologiya fani o‘qituvchilarining individual xususiyatlarini inobatga olish; faoliyatning maqsadini aniq va ravshan belgilash,

uning har bir talabalar tomonidan qabul qilinishini ta'minlash, o'quv faoliyat vositalarining faoliyat maqsadiga mosligini; talabalar oldiga qo'yilayotgan o'quv masalalari murakkabligi va ularning haqiqiy imkoniyatlariga mosligini e'tiborga olish muhim ahamiyat kasb etadi.

Individuallashtirilgan o'qitish - texnologiya fani o'qituvchilarining shaxsiy imkoniyatlarni ro'yobga chiqarishni ta'minlashga qaratilgan o'quv jarayonini tashkil etishning shakli bo'lib, bunda o'qituvchi mashg'ulotlarda talabalar bilan yakkama-yakka shug'ullanishi lozim. Talaba berilgan topshiriqni o'quv vositalari, jihozlar va moslamalar yordamida mustaqil holda individual yoki juftlikda bajaradi.

Individuallashtirilgan o'qitish ta'lim jarayoni talabalarning imkoniyatlari va qobiliyatlariga moslashtiriladi. Bunda talabalarning bilim olish va o'rganish darajasi doimiy individual baholanib boriladi, qo'shimcha shug'ullanishlar va ta'lim jarayoniga zaruriy tuzatishlar kiritish orqali samarali natijalarga erishiladi. Biz tadqiqotimizda texnologiya fani o'qituvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda individual yondashuvga asosiy e'tiborni qaratdik.

Oliy ta'lim muassasalarida individuallashtirilgan ta'limni joriy etish texnologiya fani o'qituvchilarining individual psixologik xususiyatlarini, qiziqishlari va moyilliklarini hisobga olgan holda o'qitish imkonini beradi. Chunki oliy ta'lim muassasalarida salomatligi, bilimi va o'zlashtirish imkoniyatlari turli darajada bo'lgan talabalar ta'lim olishadi.

Oliy ta'lim muassasalarida texnologiya fani o'qituvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlash asosan ixtisoslik fanlarni o'qitish sifatiga bog'liq bo'ladi. Ixtisoslik fanlar orqali talabalarda kasbiy bilim, ko'nikma va malaka shakllantiriladi. Kasbiy amallarni o'rgatish esa ixtisoslik fanlar va o'quv amaliyoti o'zaro bog'liqligida amalga oshiriladi.

Bizning fikrimizcha oliy ta'lim muassasalarida ixtisoslik fanlarni o'qitishda talabalarni individual ta'lim asosida kasbiy faoliyatga tayyorlashda quyidagilarini amalga oshirish muhim:

- o'quv rejalarini va fan dasturlari individual ta'lim tamoyillari asosida ishlab chiqish;

- ixtisoslik fanlar bo'yicha ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantirivchi maqsadlarining individuallashtirilgan ta'lim tamoyillari asosida belgilash;
- ixtisoslik fanlardan o'quv materialini ishlab chiqishda talabalarning o'rtacha darajada tayyorlanganligiga mo'ljallanganligi, bunda haqiqiy o'quv imkoniyatlarini inobatga olish;
- ixtisoslik fanlar bo'yicha o'quv topshiriqlari mazmunini ishlab chiqishda murakkablik darajalarini inobatga olish;
- ta'limi maqsadidan kelib chiqib, bajarishi zarur bo'lgan amaliy harakatlari bilan aniq maqsadga, real o'quv vaziyatiga erishish shartlariga bevosita bog'liq bo'lgan harakatlar o'rtasidagi muvofiqliklikni o'rnatish; ixtisoslik fanlarini o'qitishda individual ta'lim texnologiyalari va dasturiy ta'lim vositalardan samarali foydalanish;
- ixtisoslik fanlaridan darsdan tashqari payti o'zlashtirishi qiyin bo'lgan talabalar bilan yakka tartibda ishlashning zamonaviy shakl va innovatsion texnologiyalarni qo'llashdir. Ushbu talablarning bajarilishi uchun oliv ta'lim muassasalarining o'quv rejalarini va ixtisoslik fan dasturlari umumiylar farqli ravishda har bir talabaning tayyorgarligi, intilishlari, haqiqiy o'quv imkoniyatlaridan kelib chiquvchi ob'ektiv talablarini inobatga olib individuallashtirilgan ta'lim tamoyillari asosida ishlab chiqilishi lozim. Buning uchun:
- texnologi fani o'qituvchilarining haqiqiy o'quv imkoniyatlarini taxlil qilish va ularning individual xususiyatlarini bilish;
- kasbiy va mexnat faoliyatining maqsadini aniq va ravshan belgilash, o'quv maqsadlarini faoliyatga yo'naltirib belgilash;
- talabalar oldiga qo'yilayotgan o'quv masalalari va topshiriqlarning murakkabligi va ularning haqiqiy imkoniyatlariga mosligini aniqlash lozim.

Bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarini kasbiy faoliyatini rivojlantirishda motivatsiyaning turli usullaridan foydalanadi. Ularni tanlab olishda fan va texnikaning eng so'ngi yutuqlari va kashfiyotlaridan foydalanish kerak. Bo'lajak texnologiya fani o'qituvchisining kasbiy faoliyati rivojlantirishi uchun qilayotgan ish mazmunini yaqqol tasavvur qilgandagina ishga ongli ravishda kirishadi.

Bo‘lajak texnologiya fani o‘qituvchisining kasbiy faoliyatini rivojlantirishda ta’lim mazmunini shakllantirish tamoyillari ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Misol uchun “Texnologiya ta’limi praktikumi” ixtisoslik fanidan tikuvchilikka oid malakalarini shakllantirishda bo‘lajak texnologiya fani o‘qituvchilarining o‘rtoqlari bilan baxsi va o‘ziga-o‘zi baho berishi katta ahamiyatga ega. Buning uchun ta’limning o‘qitish tamoyillariga e’tiborni qaratadigan bo’lsak:

Texnologiya ta’limida onglilik va faollik tamoyili

Texnologiya ta’limida ilmiylik va tizimlilik tamoyili

Texnologiya ta’limida tizimlilik va izchillik tamoyili

Texnologiya ta’limida onglilik va faollik tamoyili bo‘lajak texnologiya fani o‘qituvchisi tikuvchilikka oid kreativligini rivojlantirishi uchun qilayotgan ish mazmunini yaqqol tasavvur qilgandagina ishga ongli ravishda kirishadi. Bu tamoyil bo‘lajak texnologiya fani o‘qituvchilarini tikuvchilikka oid kreativligini rivojlantirishda ilmiy bilimlarni hamda ularni amalda qo‘llash metodlarini ongli va faol egallab oladigan, ularda ijodiy tashabbuskorlik va o‘quv faoliyatida mustaqillik, tafakkur, nutqi rivojlanatiradi. Bo‘lajak texnologiya fani o‘qituvchilarini tikuvchilikka oid kreativligini rivojlantirishdagi onglilik tamoyili ta’lim jarayonining aniq maqsadlarini tushunish, o‘rganilayotgan dalil, hodisa, jarayonlar va ular o‘rtasidagi bog‘lanishni tushungan holda o‘zlashtirib olish, o‘zlashtirilgan bilimlarni amaliy faoliyatda qo‘llay bilish kabi me’yorlarni anglatadi.

Texnologiya ta’limida ilmiylik va tizimlilik tamoyili bo‘lajak texnologiya fani o‘qituvchilarining tikuvchilikka oid kreativligini rivojlantirishda ilmiy jihatdan asoslangan, amalda sinab ko‘rilgan ma’lumotlar berilishini talab etadi. Ularni tanlab olishda fan va texnikaning eng so‘ngi yutuqlari va kashfiyotlaridan foydalanish kerak. Ilmiy bilimlarni egallash jarayonida bo‘lajak texnologiya fani

o‘qituvchilarning tikuvchilikka oid kreativligiilmiy dunyoqarash, tafakkur rivojlanadi. Har bir darsda o‘qitiladigan o‘quv materialining ilmiy mazmuni keng va chuqur bo‘lishi bo‘lajak texnologiya fani o‘qituvchilarining tikuvchilikka oid bilim, balki tafakkur hosil qilishi hamda uning ijodiy qobiliyati kreativ rivojlantirishi kerak. Buning uchun esa o‘qituvchi o‘z ilmiy saviyasini izchil ravishda oshirib borishi zamonaviy pedagogik texnologiyalar, kashfiyotlar va ilmiy yangiliklardan xabardor bo‘lishi lozim. Bo‘lajak texnologiya fani o‘qituvchilarini tikuvchilikka oid o‘rganayotgan bilimlar, albatta nazariy tasdiqlangan va amalda sinalgan bo‘lishi kerak.

Texnologiya ta’limida tizimlilik va izchillik - o‘qitishni shunday tashkil etishni talab etadiki, bunda o‘quv fanlarini o‘qitish qat’iy mantiqiy tartibda olib boriladi. Bo‘lajak texnologiya fani o‘qituvchilarini tikuvchilikka oid kreativ rivojlanishlari uchun bilim ko‘nikma va malakalarini izchillik bilan egallab boradilar va ayni paytda amaliy vazifalarni hal qilish uchun ulardan foydalanishni o‘rganadilar. Tizimlilik va izchillik tamoyili pedagogik jarayonning hamma bo‘g‘inlarida amalga oshiriladi. Uning talablari darsliklar va dasturlarni tuzishda o‘z aksini topadi. O‘quv materialini to‘g‘ri taqsimlash ya’ni oddiydan murakkabga, oddiy operatsiyalardan qiyinroq operatsiyalarni bajarishga o‘tishni talab qiladi.

Texnologiya ta’limida izchillik tamoyili bo‘lajak texnologiya fani o‘qituvchilarini tikuvchilikka oid kreativ rivojlantirishda didaktika qoidalariga amal qilishni talab etadi: Oddiydan murakkabga, ma’lumdan noma’lumga. Mavzularni o‘tishda yoki texnologik muammolarni yechishda o‘qituvchi darsni shunday rejallashtirishi kerakki, o‘quvchilarning hammalariga tushunarli bo‘lishi kerak. Bo‘lajak texnologiya fani o‘qituvchilarini tikuvchilikka oid kreativ rivojlantirishda yoshi va individual xususiyatlari hisobga olinishi talab etiladi. Buning uchun esa o‘qituvchi o‘z ilmiy saviyasini izchil ravishda oshirib borishi zamonaviy pedagogik texnologiyalar, kashfiyotlar va ilmiy yangiliklardan xabardor bo‘lishi lozim. Bo‘lajak texnologiya fani o‘qituvchilarini tikuvchilikka oid o‘rganayotgan bilimlar, albatta nazariy tasdiqlangan va amalda sinalgan bo‘lishi kerak.

Oliy ta'lif muassasalarida individuallashtirilgan ta'lif jarayoni talabalarning imkoniyatlari va ularning shaxsiy xususiyatlarini hisobga olgan holda loyihalashtiriladi va talabaning rivojlanishi uchun psixologik-pedagogik, innovatsion muhit yaratilishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Dilafruz Ahmadovna Sayfullayeva. "Methodology of using innovative technologies in technical institutions". PSYCHOLOGY AND EDUCATION. Scopus International Journal.(2021) 58(1)
2. Olimov Kakhramon Tanzilovich, Sayfullaeva Dilafruz Ahmedovna, Khimmataliev Dustnazar Omonovich, Ashurova Sanobar Yuldashevna, Gaffarov Feruz Hasanovich.Teaching Special Subjects for Students with Disabilities in Preparation for the Profession by Using Innovative Educational Technologies. International Journal of Innovative Technology and Exploring Engineering (IJITEE) ISSN: 2278-3075, Volume-9 Issue-1S, November 2019.B.425-429
- 3.Sayfullayeva D.A. Innovative and Individual Approach in Professional and Vocational Training of Young People with Disabilities Eastern European Scientific Journal. – Germany, 2017. – №1. – P.154-157 (13.00.00. №1).
- 4.Dilafruz Ahmadovna Sayfullayeva, Kakhkhorov Sobir Kh., Bahronova Sh.I.INCREASING THE PROFESSIONAL CREATIVITY OF STUDENTS IN TEACHING SPECIALTIES. Проблемы современной науки и образования.НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ ЖУРНАЛ. 2020. № 12 (157). Часть 2 С.33
- 5.Dilafruz Ahmadovna Sayfullayeva, Inamov Dilmirza Dedamirzayevich, Savriyeva Iqbol Bahodirova, Qaxorov Sobir Xudoyberdiyevich. LEVELS OF ACTIVATION THE ACTIVITIES OF STUDENTS/ EPRA International Journal of Environmental Economics, Commerce and Educational Management. 2020.-B 28-31
- 6.Сайфуллаева Д.А Пути повышения эффективности преподавания специальных дисциплин. International conferenceon science and education.Turkey.-2021. B.72-74

- 7.Sayfullayeva D.A, Rustamov E.T, Rayimova D.D, Jabborova M. J., Faridov M. F. CHARACTERISTICS OF TECHNICAL CREATIVITY IN TECHNOLOGICAL EDUCATION. Innovative technologica methodical research journal.2021.B-37-41
8. Bozorova Munira Shavkatovna Sayfullayeva Dilafuz Axmadovna.UMUMKASBIY FANLARNI O'QITISHDA DASTURIY VOSITALARDAN FOYDALANISH. Ta'limda innovatsion texnologiyalar.2022.B-7